
TRANSPORT VOSITALARI IJARA SHARTNOMALARINI NOTARIAL TASDIQLASH BEKOR QILINDI



Davlat soliq qo'mitasi tomonidan "E-ijara" elektron xizmatida transport vositasi ijara shartnomalarini soliq organlarida hisobga quyish imkoniyati yaratildi.

Elektron xizmatdan foydalanish uchun "ijara.soliq.uz" internet manziliga ijaraga beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar elektron raqamli imzosi (ERI) orqali kiritiladi.

Shartnomani hisobga quyish uchun elektron xizmatning transport vositalari ijara shartnomalarini hisobga qo'yish oynasiga o'tiladi. Ijara shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo'yish bilan bog'liq barcha ma'lumotlar avtomatik shakllanadi;

Transport vositalarini ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi to'g'risida ma'lumotlar JShShIR, FIO, manzil;

Ijaraga berayotgan transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy davlat raqami va hokazo.

Mulkdor ijaraga berilayotgan transport vositasini tanlab, ijaraning boshlanishi va tugash sanalari, bir oylik ijara to'lovlari miqdorini kiritadi hamda shakllangan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun ijara oluvchiga yuboriladi.

Ijaraga beruvchi jo'natgan ma'lumotlar ijaraga oluvchi tomonidan tekshirilib tasdiqlash tugmasi bosilgandan so'ng ijara shartnomasi soliq organida avtomatik ravishda hisobga olinadi va hisobga qo'yilganligi to'g'risidagi guvohnoma shakllanadi.

01.09.2022 yildan fuqaro va yulovchi tashash faolyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar o'tasida to'ziladigan transport vositasi ijara shartnomalarini notarial tasdiqlash talabi bekor qilindi. Transport vositasi ijara shartnomalari soliq organlarida elektron tarzda hisobga olinadi.

Manba - O'zbekiston Respublikaasi Prezidentining 07. 07 . 2022 yildagi 311-sonli qarori

Z.Rahmatjonov - So'x tuman tadbirkorlarni qo'llab- quvvatlash sho''basining soliq bo'yicha inspektori

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-09-08 10:30:59